

16-dars. O'rganilganlarni takrorlash



1. Hisoblang. Qaysi misol ortiqcha bo'lishi mumkin?

$$50 - 20$$

$$45 - 15$$

$$24 - 14$$

$$43 - 13$$

$$70 - 50$$

$$98 - 16$$

$$51 - 41$$

$$72 - 32$$



2. Misollarni namuna bo'yicha yeching.

Namuna:

$$40 - 26 = (30 - 20) + (10 - 6) = 10 + 4 = 14$$

$$50 - 23$$

$$60 - 46$$

$$90 - 64$$

$$80 - 57$$



3. Jadval asosida masala tuzing. Uning qisqacha shartini va yechilishini yozing.

Bor edi	Uchib ketdi	Qoldi
$(21 + 29)$ ta 	14 ta 	? ta 



4. Tenglamalarni yeching. Natijalarga mos qushlar nomini toping.

chumchuq

$$x + 23 = 80$$

chittak

$$90 - x = 28$$

snegir

$$x - 56 = 14$$



62



70



57



5. Kattaliklar ustida amallar bajaring:

- a) $4 \text{ dm } 3 \text{ cm} + 37 \text{ cm} - 1 \text{ dm } 6 \text{ cm};$
- b) $7 \text{ dm} - 44 \text{ cm} + 2 \text{ dm } 3 \text{ cm};$
- d) $25 \text{ cm} + 4 \text{ dm } 5 \text{ cm} - 2 \text{ dm } 8 \text{ cm};$
- e) $8 \text{ dm} - 3 \text{ dm } 1 \text{ cm} + 21 \text{ cm}.$




6. 12 cm uzunlikda kesma chizing. Uning ostiga undan va biri ikkinchisidan 2 cm qisqa bo'lgan yana ikkita kesma chizing. Oxirgi kesma qanday uzunlikda bo'ladi?



7. Katta qafasda 50 ta qush yashaydi. Ular orasida 11 ta tovus, tovuylardan 3 ta ko'p qirg'ovul bor, qolganlari esa kakliklar. Katta qafasda nechta kaklik bor?



8. Qushlar uchun yasalgan katta qafas kvadrat shaklidagi katakchalarga bo'lingan. Bo'yalgan katakchani tomonlari 3 metrdan. Katta qafasning bo'yi va enini toping.



9. Amallarning to'g'ri tartibiga rioya qilgan holda hisoblang.

$$(63 + 17) - 42$$

$$(80 - 45) + 15$$

$$(24 + 36) - 18$$

$$(90 - 14) + 4$$

10. Hovuzda 24 ta o'rdak va 16 ta oqqush suzib yurgan edi. Birozdan so'ng 11 ta qush uchib ketdi. Hovuzda nechta qush qoldi?

